

**“TASDIQLAYMAN”**

**“NKMK” AJ**

**Bosh direktorining xodimlar va  
ma'muriy masalalar bo'yicha  
o'rinbosari – boshqaruv a'zosi**



**Q.X. Taparov**

**“NKMK” AJning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni  
ko'rib chiqish natijalari haqidagi  
HISOBOT**

*2024-yil 31-dekabr holatiga*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJga 2024-yil davomida korrupsiyaga oid jami **57** ta murojaat kelib tushgan. Shundan, 36 tasi yozma shaklda, 18 tasi O'zbekiston Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, 3 tasi jamiyat elektron manzili orqali kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar asosida **6** ta xizmat tekshiruvi olib borilgan va **51** ta o'rganish o'tkazilib, tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.

Shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha **51** tasi bo'yicha tushuntirish berilgan bo'lsa, **6** tasi bo'yicha asoslar mavjud bo'lganligi sababli qisman qanoatlantirilgan.

**8** nafar fuqaro tomonidan yuborilgan **8** ta murojaatlarni ko'rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (*yoki murojaatning bir qismi*) vakolat doirasida ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

Murojaatlarni ko'rib chiqish davomida, aniqlangan qoidabuzarlik holatlari yuzasidan **2** nafar xodim (*shundan 1 nafari rahbar*) intizomiy javobgarlikka tortilgan.

**Komplayens xizmati boshlig'i**

A handwritten signature in blue ink, appearing to read "R.F. Avezov", is written over the text of the signature.

**R.F. Avezov**